



SUN'IY INTELEKT VA JAMIYAT

Nargiza Atayeva ,

Urganch davlat universiteti

Filologiya va san'at fakulteti 1-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada sun'iy intellektning paydo bo'lishi, uning jamiyat hayotiga kirib kelishi va inson tafakkuriga ko'rsatayotgan ta'siri yoritiladi. Maqolada sun'iy intellekt bilan bog'liq xavotirlar, xususan, ayrim kasblarning yo'qolishi, inson fikrlash faoliyatining susayishi haqidagi turli qarashlar tahlil qilinadi. Shuningdek, bugungi kunda sun'iy intellektning ta'lim, tibbiyot, sanoat va axborot texnologiyalari sohalarida tutgan o'rni hamda uning ta'lim jarayonidagi samarali jihatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Texnologik rivojlanish XXI asr taqozosi hisoblanadi. Dunyo bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun davlat va jamiyatlar yangicha yechimlarga murojaat qilmoqda. Ana shunday yangiliklardan biri- sun'iy intellekt bo'lib, dastlab inson hayotini yengillashtirish maqsadida yaratilgan bu texnologiya bugun deyarli barcha sohalarga kirib bordi. Endi u hayrat uyg'otadigan yangilik emas, balki kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Kichkinaligimda ishlarni bajaradigan yordamchi robot haqida orzu qilardim. Tasavvurimizdagi hech charchamaydigan bu yordamchi oyimga dam berib, biz bilan ko'proq vaqt o'tkazish imkonini yaratardi. Bu oddiy, ammo samimiy orzular keyinchalik ham meni tark etmadi. Bugun esa o'sha bolalik xayollari texnologik haqiqatga aylanib borayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Sun'iy intellekt g'oyasi ilk bor XX asr o'rtalarida shakllana boshladi. 1950-yilda ingliz matematigi va kriptografi Alan Tyuring mashinalar inson fikrlashiga yaqinlashishi mumkinligi haqida ilmiy



mulohazalar yuritdi. Oradan olti yil o'tib, amerikalik olim John McCarthy "sun'iy intellekt" atamasini fanga kiritdi. 1997-yilda shaxmat bo'yicha jahon chempioni Garri Kasparovni mag'lub etgan "Deep Blue" dasturi yaratilgach, bu soha jiddiy e'tibor markaziga aylandi va rivojlanish yangi bosqichga ko'tarildi.

Bolalikdagi orzularimda shaxsiy robot inson hayotini ham aqlan, ham jismonan yengillashtiradigan yordamchi bo'lishi kerak edi. Bugun esa bunday tasavvurlar sun'iy intellektning real funksiyalari sifatida namoyon bo'lmoqda. Aslida, sun'iy intellekt- inson harakatlari va fikrlash jarayoniga taqlid qila oladigan texnologik tizim bo'lib, u inson o'rnini bosish uchun emas, balki uning imkoniyatlarini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Uning eng muhim jihati- belgilangan vazifani eng maqbul yo'l bilan hal qilish qobiliyatidir.

Shu bilan birga, sun'iy intellekt atrofida xavotirli savollar ham yo'q emas. Ba'zi mutaxassislar uni kiberxavfsizlik va ekologik muammolar bilan bog'lasa, boshqalar uning inson faoliyatiga ta'siri haqida tashvish bildirmoqda. Ayniqsa, texnologiyaning inson qobiliyatlarini cheklab qo'yish ehtimoli jiddiy muhokama qilinmoqda. "Microsoft" asoschisi Bill Geyts sun'iy intellektni raqamli texnologiyalar tarixidagi eng muhim bosqichlardan biri sifatida baholaydi. Xitoyning Sinxua universiteti professori Shen Yan esa bu jarayon haqida shunday deydi: "Sun'iy intellekt inson qobiliyatlari o'rnini bosa boshlagan sari, agar inson o'z ma'naviy va intellektual salohiyatini rivojlantirmasa, ijtimoiy funksiyalarning qiymati pasayib boradi". Demak, texnologik taraqqiyot bilan birga insonning o'z ustida ishlashi ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Sun'iy intellektning jadal rivoji dunyo miqyosida turli munosabatlarni keltirib chiqarmoqda. Texnologiya tarafdorlari uni taraqqiyotning muhim bosqichi sifatida baholasa, ayrim yetakchi mutaxassislar bu jarayon insoniyat kelajagi uchun jiddiy xavf tug'dirishini ta'kidlamoqda. Jumladan, "SpaceX" asoschisi Elon Musk sun'iy intellektni insoniyat sivilizatsiyasi uchun asosiy tahdidlardan biri deb hisoblaydi.



Uning fikricha, robotlar mehnat bilan bog'liq ko'plab vazifalarni insondan yaxshiroq bajara boshlagach, ommaviy ishsizlik muammosi yuzaga keladi. Bu qarashni "Microsoft" rahbari Bill geyts ham qo'llab-quvvatlaydi. Uning ta'kidlashicha, bir necha o'n yillardan so'ng sun'iy intellekt ishlarning asosiy qismini bajarishga kirishadi va aynan shu holat jamiyatni jiddiy tashvishga solishi mumkin. Geytsni eng ko'p o'ylantiradigan jihat- bu xavf-xatarlar hammani birdek tashvishlantirmayotgani. Biroq "Facebook" asoschisi Mark Zuckerberg bu masalaga nisbatan optimistik yondashadi. Uning fikricha, har qanday texnologiya kabi sun'iy intellekt ham to'g'ri yo'naltirilsa, yaqin besh-o'n yil ichida jamiyatga sezilarli ijobiy natijalar olib keladi. Mazkur bahslar fonida O'zbekistondagi Sun'iy intellekt maslahat kengashi rahbari Bobur Rahimov bildirgan fikrlar e'tiborga loyiq. U tarixga nazar tashlar ekan, deyarli har bir texnologik yangilik dastlab qo'rquv bilan qarshi olinganligini ta'kidlaydi. Inson miyasi yangi va notanish narsalarni xavf sifatida qabul qilishga moyil. Ammo tinch va maqsadli yo'nalishda qo'llangan ixtirolarning barchasi oxir-oqibat hayot sifatini oshirgan. Demak, muammo texnologiyada emas, balki undan qanday foydalanilayotganidadir. Qizg'in bahs va tortishuvlar qanchalik davom etmasin, sun'iy intellekt borasida bir haqiqatni tan olishga to'g'ri keladi: bu jarayonda ortga yo'l yo'q. Endilikda eng muhim vazifa- ushbu texnologiyani insoniyat manfaatlari yo'lida to'g'ri boshqarish va undan oqilona foydalanishdir. So'nggi yillarda pandemiya jarayonlari ham texnologik taraqqiyotni tezlashtirib yubordi. Ijtimoiy zarurat sabab ko'plab raqamli yechimlar yaratildi va ommalashdi. Sun'iy intellektning imkoniyatlari kengaygani sari uning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan muammolar ham mutaxassislarni xavotirga solmoqda. Jumladan, "Goldman Sanchs" banki yaqin o'n yil ichida sun'iy intellekt sabab dunyoda qariyb 300 million ish o'rni yo'qolishi mumkinligini bashorat qilmoqda. Bugungi kunda ayrim mamlakatlarda robot-hamshiralar, haydovchisiz transport vositalari, buyurtma yetkazib beruvchi dronlar keng qo'llanilmoqda. Hatto huquq-targ'ibot tizimida ham ayrim vazifalarni robotlar bajarayotgani



kuzatilmoqda. Bu esa ishsizlik muammosining keskinlashishiga olib kelishi mumkin. Jahon iqtisodiy forumi 2007-yilga kelib Yevropaning o'zida millionlab ish o'rinlari qisqarishini taxmin qilmoqda. Shu bilan birga, o'qituvchilik, huquqshunoslik, aktyorlik, psixologiya kabi ijodkorlik va jonli muloqotni talab qiluvchi kasblarni sun'iy intellekt to'liq almashtira olmasligi ham haqiqatdir. Balki xavotirlanish o'rinsizdir: xavfli, takroriy va kreativlik talab qilmaydigan ishlarni robotlar bajarib, inson esa tafakkur, ijod va ma'naviyatga asoslangan faoliyat bilan shug'ullansa, hayot yanada mazmunli bo'lar. Ammo butun insoniyatni faqat yaratuvchanlik bilan yashashga majbur qilish ham real emas.

Bugun sun'iy intellekt nafaqat texnik, balki badiiy va ijodiy maydonlarda ham faol namoyon bo'lmoqda. Jumladan, "Midjourney Artificial Intellegence" platformasi berilgan tavsif va ta'riflar asosida turli personajlarning vizual qiyofasini yaratmoqda. Bu tizimdan milliy adabiy asarlarimiz qahramonlarining ta'rifi asosida foydalanib ko'rilibdi. Dastlab Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida keltirilgan izohga ko'ra sun'iy intellekt tomonidan chizilgan Kumush qiyofasi ijtimoiy tarmoqlarda keng tarqaldi. So'ng Otabek, keyin Zaynab. Ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari sun'iy intellekt taqdim etgan suratlar filmdagi aktyorlarga o'xshatib tasvirlanganini ta'kidlashgan. O'tkir Hoshimovning "Ikki eshik orasi" romani qahramoni Ra'noning surati asardagi ta'rifga juda mos kelgani haqida yozishgan.

Shuningdek, "Alpomish" dostoni qahramonlari Hakimbek va Barchin qiyofalari, sohibqiron Amir Temur va Boyazid Yildirim, Umarshayx Mirzo va Mirzo Ulug'bek suratlari, "Boburnoma"da keltirilgan ta'riflar asosida shaxs, voqea va joylarning suratlari ham tarqaldi. Faqat tasviriy san'at bilan cheklanib qolmasdan, bugun "ChatGPT", "Writesonic", "Jasper AI" kabi platformalar maqola yozish, tahlil qilish, matnlarni qayta ishlash orqali jurnalistika sohasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hatto ayrim davlatlarda sun'iy intellekt asosida yaratilgan virtual



boshlovchilar ham ish boshladi. Jumladan, “Kuwait News” axborot agentligi tomonidan taqdim etilgan Fiddoh nomli virtual suxandon arab tilida xabarlarni ravon tarzda yetkazmoqda. Bu holat texnologiyaning qanchalik tez rivojlanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, Bill Geyts bu jarayon haqida fikr bildirib, matn o`qish, yozish, murakkab hujjatlarni umumlashtirish va muayyan muallif uslubida asar yaratish kabi vazifalarni sun`iy intellekt allaqachon uddalayotganini ta`kidlaydi. Ammo bu “ijod” inson tafakkuri va qalbidan emas, balki mavjud ma`lumotlar bazasini qayta ishlash asosida yuzaga kelayotgan umumlashma mahsuli ekanini ham unutmashlik lozim. Shu bois sun`iy intellekt yaratgan matnlar ko`pincha hissiy chuqurlikdan xoli bo`ladi.

Tan olish kerak, sun`iy intellekt eng samarali natijalarni aynan ta`lim sohasida bermoqda. Mutaxassislarning fikriga ko`ra, yaqin yillarda ta`lim muassasalarining aksariyati sun`iy intellekt asosida mashg`ulotlarni joriy etishni rejalashtirmoqda. Buning asosiy sababi- texnologiyaning har bir o`quvchiga individual yondasha olishidir. Bugungi kunda sun`iy intellekt avtomatik baholash tizimlari, test platformalari, interaktiv yordamchilar va onlayn o`qitish dasturlari keng qo`llanilmoqda. Bu esa o`quv jarayonini qulay va samarali holga keltirmoqda.

Virtual laboratoriyalar, simulyatorlar va ovozli yordamchilar o`quvchilarga amaliy bilimlarni xavfsiz va samarali tarzda o`zlashtirish imkonini bermoqda. Masalan, tibbiyotda 3D anatomik modellar, fizika fanida esa virtual tajribalar keng qo`llanilmoqda. Bugun robotlar murakkab jarrohlik amaliyotlarini bajarib, shifokorlar bilan hamkorlikda davolash sifatini oshirmoqda. Xitoyda ayrim kasalliklarni aniqlashda sun`iy intellekt samaradorligi yuqori natija bermoqda. AQSHda esa inson fikrlarini qisman tahlil qila oladigan texnologiyalar ustida tadqiqotlar olib borilmoqda. Shu bilan birga, Tokioda android-rohib, Germaniyada robot-ruhoniylar, Kiotoda esa robot-ma`buda faoliyat yuritayotgani texnologiyaning jamiyat hayotiga qanchalik chuqur kirib kelganini ko`rsatadi. Til o`rganishda esa



sun'iy intellekt talaffuzni to'g'irlash, matnlarni tahlil qilish va muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Shunga qaramay, sun'iy intellekt inson tafakkuri, pedagogik sezgirlik va hissiy aloqani to'liq almashtira olmaydi. Shu bois ta'limda undan oqilona va nazorat ostida foydalanish muhimdir. Ayniqsa, davlat xizmatlari sohasida sun'iy intellektdan foydalanish samaradorlikni oshiradi, byurokratik to'siqlarni kamaytirish va fuqarolarga teng xizmat ko'rsatish imkonini bermoqda. Biroq bunday texnologiyalarni joriy etishda axborot xavfsizligi va shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligini ta'minlash muhim masala bo'lib qolmoqda.

Xulosa qilib aytganda, sun'iy intellekt hayotimizni yengillashtirayotgan bo'lsa-da, uning rivoji katta energiya sarfini talab etadi va bu ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bois texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda axloqiy me'yorlar, qonunchilik va inson nazoratini mustahkamlash zarur. Texnologiya inson uchun xizmat qilishi, inson esa uni ongli ravishda boshqaruvchi kuch bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan manbalar:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/tyuring-testi-sun-iy-intellektni-baholash-mezoni>
2. <https://kun.uz/news/2024/10/03/bill-geyts-suniy-intellekt>
3. “SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA HUQUQ: IMKONIYATLAR VA MUAMMOLAR” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami 2025-yil 25-noyabr. Toshkent-2025.
4. <https://yuz.uz/uz/news/suniy-intellekt>
5. H.N.Zayniddinov, T.A.Xo'jaqulov, M.P.Atadjanova “Sun'iy intellekt” fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent-2018.
6. A.V.Vaxabov, D.A.Tadjibayeva, Sh.X.Xajibakiyev “Jahon iqtisodi va xalqaro iqtisodiy munosabatlar”. Toshkent-2015.